

DEVIANT XULQ-ATVORLI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ISH

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti
pedagogika ta'lim yo'nalishi 2-bosqich guruh talabasi*

Abduqahhorova Maysara Hasan qizi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi deviant xulq-atvorli bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ishning mohiyati, asosiy yondashuvlari va samarali usullari ko'rib chiqiladi. Deviant xulq-atvorli bolalarda ijtimoiy moslashuv muammolari, pedagogik e'tiborsizlik va psixologik omillar ta'sirida shakllanadi. Shu sababli, ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash uchun alohida yondashuv talab etiladi. Shuningdek, bu tadqiqotda deviant xulq-atvorli bolalar uchun tarbiyaviy muhitni yaratish, ularni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash va bu ishda oila bilan hamkorlikning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlashda profilaktika va rehabilitatsiya tadbirlarining o'rni va samaradorligi ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: deviant xulq-atvor, ijtimoiy-pedagogik ish, moslashuv, profilaktika, rehabilitatsiya, tarbiya, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, oilaviy hamkorlik, ijtimoiy integratsiya.

Abstract: This thesis examines the essence, main approaches and effective methods of socio-pedagogical work with children with deviant behavior. Problems of social adaptation in children with deviant behavior are formed under the influence of pedagogical neglect and psychological factors. Therefore, a special approach is required to ensure their social integration. Also, this study examines the importance of creating an educational environment for children with deviant behavior, providing them with psychological and pedagogical support, and cooperating with the family in this work. At the same time, the role and effectiveness of preventive and

rehabilitation measures in working with children with deviant behavior are also analyzed.

Keywords: *deviant behavior, socio-pedagogical work, adaptation, prevention, rehabilitation, education, psychological and pedagogical support, family cooperation, social integration.*

Аннотация: *В данной диссертации рассматриваются сущность, основные подходы и эффективные методы социально-педагогической работы с детьми с девиантным поведением. Проблемы социальной адаптации у детей с девиантным поведением формируются под влиянием педагогической запущенности и психологических факторов. Поэтому требуется особый подход к обеспечению их социальной интеграции. Также в данной работе рассматривается важность создания образовательной среды для детей с девиантным поведением, оказания им психолого-педагогической поддержки и сотрудничества с семьей в этой работе. При этом анализируется роль и эффективность профилактических и реабилитационных мероприятий в работе с детьми с девиантным поведением.*

Ключевые слова: *девиантное поведение, социально-педагогическая работа, адаптация, профилактика, реабилитация, воспитание, психолого-педагогическая поддержка, семейное сотрудничество, социальная интеграция.*

Deviant xulq-atvor bugungi kunda keng tarqalib borayotgan va bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, yoshlar orasida keng tarqalgan. Ushbu xulq-atvorning kelib chiqishi ijtimoiy, psixologik va oilaviy muammolar bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi. Shaxsni ijtimoiylashtirish, unga jamiyatda qanday xulq-atvorlarni qabul qilish yoki rad etish kerakligini o'rgatish juda muhimdir. Jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qadriyatlarni tushunish yoshlar va kattalar orasida deviant xulq-atvorni

kamaytirishga yordam beradi. Shunday qilib, ijtimoiy pedagogika ijtimoiy muhitning ta'siriga qarshi kurashishda asosiy vosita bo'lishi mumkin.

Har qanday jamiyatda doimiy e'tiborga muhtoj odamlar bor. Bular o'z jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlantirishida chetga chiqishi, og'ishi bor bo'lgan odamlardir. Ular doim guruh bo'lib ajralishga ,jamiyat va davlatda ularga nisbatan alohida munosabat shakllangan. Bunday insonlarga nisbatan deviatsiya yoki deviant xulq-atvor so'zlari ishlatiladi. Deviatsiya deb jamiyatda o'rnatilgan huquqiy, ijtimoiy, axloqiy qoida va me'yorlariga mos kelmaydigan xatti harakat va xulq-atvorlarga aytiladi. Odatda deviant xulq-atvor o'spirinlik davrida yuzaga keladi. O'spirinlik davri yoshlik davrlari ichida eng murakkabidir. Uni yana o'tish davri ham deb ataladi. Kattalar bu davrda bolalarga e'tiborli bo'lishlari, o'smirlarni tarbiyalash usullarini to'g'ri tanlash va ulardan foydalanishlari kerak. O'smir psixologiyasi haqida ma'lumotga ega emaslik, oilada tarbiyaning noto'g'ri usuldan foydalanish, bola va ota-onalar o'rtasida konfliktlari holatlarni yuzaga kelishi natijada musobatlarga shikast yetadi. Oiladagi salbiy, beshafqat muhit ma'lum turdagi o'smirlardagi qo'pollik, yovvoyilik, sovuq munosabat kabi illatlarni paydo bo'lishiga zamin yaratadi va ularda atrofdagilarga nisbatan qarama qarshi ruhda harakatlanib, tajavuzkorona buzuvchilar sifatini namoyon qilishadi.

Yurtimiz kundan kunga rivojlanyotgan davrda nafaqat yosh avlod balki katta yoshli insonlarda ham deviant xulq atvorning rivojlanishi jamiyatda jinoyatchilik ,foxishabozlik, oilaviy terapiya,induvidual ichkilikbozlik hamda ichki urushlar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab hodisalarini keltirib chiqarmoqda. Jamiyatda bunday shaxslarning rivojlanishi ko'plab qonunbuzarliklarga ,inqirozlarga olib kelmoqda.Deviant xulqli shaxs, jamiyat yoki guruh tomonidan qabul qilingan norma va qoidalarni buzgan holda harakat qiladigan, qabul qilinmagan xatti-harakatlar qiladigan shaxsdir. ¹Deviant xulq jamiyatda

¹ L.M.Xakimova "Deviant xulq atvor psihologiyasi" Toshkent 2014.

ma'lum bir qoidalarga zid bo'lgani uchun ko'pincha salbiy baholanadi. Ushbu xulq turlari ijtimoiy normalar va madaniyatga qarab farq qiladi. Deviant xulqli shaxs, jamiyat yoki guruh tomonidan qabul qilingan norma va qoidalarni buzgan holda harakat qiladigan, qabul qilinmagan xatti-harakatlar qiladigan shaxsdir. Deviant xulq jamiyatda ma'lum bir qoidalarga zid bo'lgani uchun ko'pincha salbiy baholanadi. Ushbu xulq turlari ijtimoiy normalar va madaniyatga qarab farq qiladi. Deviant xulq-atvor mikroijtimoiy munosabatlar (oilalar, maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlarga xos bo'lgan ijtimoiy me'yorlar va xulqatvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni ``g'ayriintizomiy`` deb atasak ham bo'ladi. Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo'lishiga ,agressiya, o'qishdan qochish va daydilik, bolalar va o'smirlar orasidagi aroqxo'rlik, giyohvandlik va u bilan bog'liq g'ayriijtimoiy harakatlar yuza keladi. Ularning shakllanishi keng tarqalmoqda.

Deviant xulqning sabablari turli xil bo'lishi mumkin. Bu psixologik omillar, ijtimoiy bosim, oila tarbiyasi, iqtisodiy ahvol yoki jamiyatdagi norma va qoidalar bilan kelishmovchilik tufayli bo'lishi mumkin. Jamiyat deviant xulqqa turlicha munosabatda bo'ladi va ko'pincha bunday shaxslarni to'g'rilash yoki jamiyatga qayta moslash uchun chora-tadbirlar qo'llaydi.

Deviant xulqli bolalar bilan ishlashda ijtimoiy ish metodlari asosiy maqsadi bolalarga yordam berish, ularning ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlash va ularga sog'lom va konstruktiv xulq-atvorni rivojlantirishda ko'maklashishdir. Quyidagi asosiy metodlar deviant xulqli bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi:

- Bolaning shaxsiy ehtiyojlarini aniqlash va unga individual yondashish.
- Bola bilan aloqani o'rnatish, uning ishonchini qozonish va u bilan ochiq muloqot qilish.
- Bolaning deviant xulq-atvor sabablarini aniqlash.
- Guruh terapiyasi orqali bolani ijtimoiy muhitga jalb qilish.

- Boshqa bolalar bilan birgalikda tajribalar almashish, qo'llab-quvvatlash va bir- biridan o'rganishga imkon yaratish.

Oilaviy terapiya

- Bolaning oilaviy munosabatlarini o'rganish va ularni yaxshilashga ko'maklashish.

- Oilaviy muammolarni hal qilish uchun barcha oilaviy a'zolarni jarayonga jalb qilish.

- Oilaga bola bilan qanday munosabatda bo'lish va qanday yordam berish kerakligini tushuntirish.

Davolash va reabilitatsiya

- Bolani kerak bo'lganda tibbiy ko'rikdan o'tkazish va zarur davolanishga yo'llash. - Reabilitatsiya dasturlarida qatnashish, jumladan, narkologiya yoki psixiatrik yordam olish imkoniyatini ta'minlash.

- Bolaga o'zini tiklash va jamiyatga qayta qo'shilishiga yordam berish.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, deviant hulqli bolalarning tarbiyasini shakllantirishga amaliy yondashgan holatda eng avvalo ularning yaqinlari va atrof muhitida bo'layotgan vaziyatlarni ham to'g'ri yo'naltirishga bolani har tomonlama ijobiylikka intilishiga yo'l ochib berishimiz kerak.

Jamiyatda deviant xulq-atvorni kamaytirish yoki yo'qotish uchun quyidagi usullardan ham foydalanishimiz kerak deb hisoblayman. Bularga: Ta'lim va tarbiya tizimini mustahkamlash, ota-onalar farzandlariga to'g'ri qadriyatlarni singdirishlari va yaxshi xulq-atvorni o'rnak qilishlari kerak. Bundan tashqari ularga yaqinlari tomonidan mehr-e'tibor yetishmasligi tufayli ham ularning xulq atvori yomonlashishi mumkin shuning uchun bu jihatlarini ham inobatga olgan holda ularni oilaviy muhitini yaxshilash eng muhim bosqichlardan biri deb o'ylayman.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ¹L.M.Xakimova "Deviant xulq atvor psixologiyasi" Toshkent 2014.

2. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. —Ijtimoiy pedagogika (darslik). – T.: Sano standard, 2022.
3. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
4. Sadriddinov S.R. Deviant xulq-atvorli bolalar psixologiyasi bilan ishlash metodikasi. Toshkent 2022.